

SADOQAT KUYCHISI – ZULFIYAXONIM!

Yo‘ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi)

2-bosqich talabasi

E-mail: yoldoshevafarangiz311@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada butun hayotini adabiyotga, she‘riyatga, nazm olamini gullatishga bag‘ishlagan o‘zbek xalqining so‘nmas sadoqat kuychisi – Zulfiyaxonim hayoti va ijodiga chuqur nazar solamiz. Uning tinimsiz mashaqqatlar girdobida kechgan umri va hayot sinovlari qarshisida mardona turib, ijoddan o‘ziga kuch olgan zalvorli umri haqida hikoya qilinadi.

Kalit so‘zlar: Zulfiyaxonim, sadoqat kuychisi, shoir she‘ri, ijod gulshani, sog‘inganda, e‘zozlar, ardoqlar uchun tashakkur.

Hayot shunday uzun yo‘lki, uning qaysi bekatida sizni qanday insonlar, qanday voqealar kutib turganini bilib bo‘lmaysiz. Ammo bu yo‘llarni bosib o‘tar ekansiz bunda siz duch kelgan mashaqqat-u qiyinchiliklar siz uchun haqiqiy hayot xulosasini chiqarish imkonini beradi.

O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, sadoqat kuychisi, nazm malikasi, taniqli jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-mart kuni Toshkentning Degrez mahallasida temirchi-hunarmand oilasida tug‘ilgan. Shoira xotin-qizlar bilim yurtida o‘qigan vaqtlaridayoq (1931—1934) adabiy to‘garaklarda she‘rlar mashq qila boshladi. 1935—1938 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi. So‘ngra 1938—1948 yillarda Bolalar nashriyotida muharrir, O‘zbekiston Davlat nashriyotida bo‘lim boshlig‘i, 1950—1953 yillarda esa “O‘zbekiston xotin-qizlari” (“Saodat”) jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1953—1980 yillarda esa bosh muharrir bo‘lib ishlaydi.

Zulfiya 17 yoshida yozgan “Hayot varaqlari” (1932) birinchi she‘rlar to‘plami bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi.

Zulfiyaning ijodiy kamolotida o‘zbek va rus mumtoz adabiyoti, xalq og‘zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an‘analarining roli benihoya bo‘ldi.

Shoira “She’rlar” va “Qizlar qo‘shig‘i” (1938) kabi poetik asarlarini ona-Vatan va uning dala, cho‘llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, mexanik, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag‘ishlaydi. Ayni chog‘da mazkur to‘plamlardagi she’rlari shoiraning she’riy mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarakterlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Urush davrida shoiraning “Uni Farhod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944) kabi to‘plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan nishona edi. To‘plamdagi she’rlar vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g‘alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarakterlidir. Zulfiyaning “Mening Vatanim”, “Qo‘limda qurol-u ustimda shinel”, “Bizni kut” kabi umidbaxsh she’rlari urush davri o‘zbek she’riyatining jangovar ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o‘rin olgan.

Shoiraning urushdan so‘nggi yillarda yozilgan “Dalada bir kun” (1948), “Tong qo‘shig‘i” (1953) kabi bir qator she’rlar turkumi, “Men tongni kuylayman”, “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Kuylarim sizga” (1965) to‘plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko‘rsatayotgan kishilar hayoti jo‘shib kuylanadi. Uni “So‘roqlaydi shoirni she’rim” (1960), “Oydin” (1953), “Quyoshli Qalam” (1967) kabi ocherk va dostonlari Hamza Hakimzoda, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi yetuk ustodlarning yorqin xotiralariga bag‘ishlangan.

Zulfiya Hamid Olimjonning “Semurug‘”, “Zaynab va Omon” dostonlari asosida pyesa va opera librettosini ham yaratgan.

Zulfiya “Uylar”, “Shalola” kabi she’riy majmualari uchun Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti sovrindori bo‘lgan. Hind mavzusidagi she’rlari uchun Javoharlal Neru nomidagi xalqaro sovrin, tinchlik va do‘stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro “Nilufar” mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Zulfiya hayot yo‘llarini o‘zi kabi she’riyat va adabiyotga mehri cheksiz bo‘lgan Hamid Olimjon bilan bog‘ladi. Ularning hayotlari juda go‘zal boshlangandi. Hamid Olimjon o‘z suyuklisiga yoqqan gul ya’ni chinni gullar bilan sevimli shoiramiz dilini doim xushnud qilib kelganlar. Yozgan she’rlarining ilk tinglovchilari o‘zlari hisoblanishgan. Doim ularning qalbida she’riyatga, adabiyotga bo‘lgan cheksiz mehr ufurib turgan.

Ularning ikki farzandi Hulkar va Omon ularning go‘zal muhabbat mevalari edi. Shoira Zulfiyaxonim “E‘zozlar, ardoqlar uchun tashakkur” she‘rida farzandlariga:

Ikki ko‘zimga ikki qorag‘ich,
Munisim Hulkarim, alpim omonim.
Shirin nabiralar hayotdan tortig‘,
Har biri joniga payvanddir jonim.

deb ikki farzandini ikki ko‘zidagi qarog‘ichlarga qiyoslaydi. Biz ikki ko‘zimizni qanday avaylab-asrar ekanmiz shoira shu holatni go‘zal she‘r tizgina nafis holda terganlar. Hayot tortig‘i deb jondan suygan jigargo‘shalari, nabiralarini tasvirlaganlar. Ularni o‘z joniga payvanddir deganlar.

Hayotning shoira Zulfiya uchun kutilmagan oni yetib kelgandi. U uchun hayotining mazmuni hisoblangan, suyuqli yori, Jizzaxlik shoir Hamid Olimjon kutilmagan vaqtda 1944-yilda avtohalokatga uchradi. Yomg‘irli kunlarning birida barcha adabiyot ixlosmantlarini o‘z bag‘riga chorlaydigan Do‘rmon bog‘idan qaytyotib, qo‘lida chaqalog‘i bor bir ayolga yordam berish uchun shoshyotgan jonkuyar ijodkorni avtohalokat kutib turardi. Tuman va yomg‘ir aralash yo‘llarda boshqaruvni yo‘qotgan shoirni ajal bu foniy dunyodan juda erta olib ketdi.

Zulfiyaga bu yukni ko‘tarish juda qiyin bo‘ldi. Ammo u suyuqli yori yodini hamisha yuragiga ko‘mib yashadi. Uning Hamid Olimjonga aytilgan “Sog‘inganda” she‘rida:

“Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga,
Ey qalbimning dilbari shoir.
Qancha bo‘ldi birga o‘ltirib,
So‘zlashmadik dillarga doir.

Dil-chi, dilim unutilib bo‘lmas,
Ishq qo‘shig‘i yozilgan kitob.
Xayol xiyol chertib o‘tdimi,
Topib ber deb qiladi xitob”.

1950-yil roppa-rosa Hamid Olimjon vafotidan 6 yil o‘tib yozilgan she‘rda o‘tli sog‘inch misralari alangalangan. Shoiraning sadoqat ila nurlarga to‘lgan umri 81 yil umri bilan o‘z poyoniga yetdi. Ammo bugun shoira bizning oramizda bo‘lmasa ham u

qoldirgan betakror adabiyot namunalari har bir yosh avlod qalbida o‘chmas bo‘lib muhrlanib qolaveradi.

Atoqli o‘zbek shoirasi 81 yoshida, 1996 yil 1 avgustida vafot etgan. Uning vafotidan so‘ng bir necha yildan keyin ya’ni 1999-yil O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov tomonidan yurtimizdagi barcha qizlar uchun “Zulfiya nomidagi davlat mukofoti” ta’ sis etilgan. Nazm malikasi Zulfiyaxonim ijodini bugun haqiqiy zulfiyachi qizlar munosib davom ettirib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yana bahor keldi, seni so‘roqlab. Zulfiya. Tafakkur. 2018.
2. <https://tafakkur.net/bahor-keldi-seni-soroqlab/zulfiya.uz>
3. <http://kutubxonachi.uz>
4. <https://aniq.uz/>
5. Saylanma. Tafakkur. 2018
6. Hayot varaqlari kitobi. Zulfiya
7. Xotiram siniqlari. Zulfiya